# YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021- yilning yanvar–sentabrida Samarqand viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 37 784,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 7,1 % ga o‘sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 114,9 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YaIMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo‘shgan hissasi 7,3 % ga yetdi.



**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari**

| | | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|---|
| | | ***2020- yil*** | ***2021- yil*** | |
| | **I. YaHM** | **30 719,4** | **37 784,8** | **107,1** |
| | *shu jumladan:* | | | |
|  | Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 30 127,4 | 36 997,9 | 107,1 |
|  | Mahsulotlarga sof soliqlar | 592,0 | 786,9 | 107,7 |
| | **Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **30 127,4** | **36 997,9** | **107,1** |
|  | **Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **13 438,3** | **16 431,5** | **102,4** |
| | **Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **6 046,6** | **7 508,1** | **111,3** |
|  | sanoat | 4 267,3 | 5 244,4 | 109,3 |

| | | *Mlrd. so'm* | | *O'sish sur'atlari,* o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|---|---|---|---|---|
| | | *2020- yil* | *2021- yil* | |
| | qurilish | 1 779,3 | 2 263,7 | 116,0 |
| | **Xizmatlar** | **10 642,5** | **13 058,3** | **110,6** |
| | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 960,4 | 2 402,4 | 108,9 |
| | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 829,2 | 2 363,8 | 118,3 |
| | boshqa xizmat tarmoqlari | 6 852,9 | 8 292,1 | 109,0 |

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 9 497,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,1 % ga yuqoridir.

**Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari**



| | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|
| **Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi** (*ming so'm*) | 7 870,7 | 9 497,7 |
| **Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM o'sish sur'atlari** (*o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da*) | -1,6 | 5,1 |

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 44,4 % ni, sanoat tarmog‘i 14,2 % ni, qurilish 6,1 % ni va xizmatlar sohasi 35,3 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*

| | *2020- yil* | *2021- yil* |
|---|---|---|
| **I. YaHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 98,1 | 97,9 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 1,9 | 2,1 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **44,6** | **44,4** |
| **Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **20,1** | **20,3** |
| sanoat | 14,2 | 14,2 |
| qurilish | 5,9 | 6,1 |
| **Xizmatlar** | **35,3** | **35,3** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 6,5 | 6,5 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 6,1 | 6,4 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 22,7 | 22,4 |

## Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*

### 2020- yil




### 2021- yil



YaHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 102,4 % (YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 44,4 %), sanoatda – 109,3 % (14,2 %), qurilishda – 116,0 % (6,1 %), xizmatlar sohasida –110,6 % ni (35,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 108,9 % (6,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 118,3 % (6,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 109,0 % dan (22,4 %) iborat bo‘ldi.

**Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari**

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*






YaHM oʻsishiga qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarmogʻi 1,1 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrida 0,3 f.p.), sanoat tarmogʻi 1,3 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrida 0,1 f.p.), qurilish tarmogʻi 0,9 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrida 0,1 f.p.), xizmat koʻrsatish sohasi 3,7 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrida salbiy 0,2 f.p.) ijobiy hissa qoʻshdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning oʻsishi hisobiga YaHM 0,1 f.p. ga koʻpaydi.

**2021- yilning yanvar-sentabr oylarida**
**YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi** *(jamiga nisbatan % da)*



2021- yilning yanvar-sentabrida YaHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 114,9 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori koʻrsatkichlari qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida 119,4 %, sanoatda 112,5 % va xizmatlarda 110,9 % qayd etildi.

## Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha deflyator indeksi

*(oʻtgan yilning mos davriga nisbatan % da)*




## 2020-2021- yillarning yanvar-sentabr oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi

*(YaQQga nisbatan %da)*




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 74,7 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-sentabrida – 75,0 %).

YaHMning oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.